


2020-yil 1-mart holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.




2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 1 683 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 707 taga kamaygan.

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yilning 1-mart holatiga ko'ra 34 865 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,2 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 25,8 % savdo, 19,0 % sanoat, 8,6 % qurilish, 7,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,9 % tashish va saqlash, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % axborot va aloqa hamda 24,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.03.2020 yil	
	01.03.2019 yil	01.03.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	28 537	34 865	122,2	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 162	2 693	124,6	7,7
Sanoat	5 384	6 622	123,0	19,0
Qurilish	2 486	3 013	121,2	8,6
Savdo	6 863	8 993	131,0	25,8
Tashish va saqlash	894	1 025	114,7	2,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 950	2 731	140,1	7,8
Axborot va aloqa	468	549	117,3	1,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	595	714	120,0	2,0
Boshqa turlari	7 735	8 525	110,2	24,6

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (10 354 ta), Urgut (3 042 ta), Pastdarg'om (2 954 ta) va Samarqand (2 545 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (789 ta), Paxtachi (866 ta) hamda Nurobod (1 025 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 32 736 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5 506 ta (20,2 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,8 % savdo, 18,9 % sanoat, 8,5 % qurilish, 7,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3,0 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % axborot va aloqa va 24,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (9 879 ta), Urgut (2 968 ta), Pastdarg'om (2 731 ta), Samarqand (2 313 ta) va Ishtixon (1 738 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (734 ta), Paxtachi (827 ta) hamda Nurobod (953 ta) tumanlarida esa korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil yanvar-fevral oylarida 1 683 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 29,6 foizga kamaygan.


Yanvar oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (395 ta), Samarqand (169 ta), Urgut (142 ta) va Kattaqo'rg'on (137 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (34 ta), Paxtachi (43 ta) hamda Nurobod (49 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (765 ta), sanoat (288 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (206 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (148 ta), boshqa faoliyat turlari (115 ta), qurilish (90 ta) va sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (18 ta), axborot va aloqa (28 ta) hamda tashish va saqlash (25 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra 27 139 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5 686 ta, oilaviy korxonalar – 48 20 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 16 127 ta, unitar korxonalar – 228 ta, aksiyadorlik jamiyati – 33 ta va boshqalar 245 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 521 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 103 taga yoki 24,6 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-mart holatiga xorijiy kapital ishtirokida 521 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Samarqand shahri (229 ta), Urgut (42 ta), Jomboy (38 ta) va Samarqand (35 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Narpay (5 ta), Paxtachi (9 ta) hamda Kattaqo'rg'on (9 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 366 tasi qo'shma korxonalar, 155 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Samarqand viloyati	521	366	155
Samarqand sh.	229	145	84
Kattaqo'rg'on sh.	17	14	3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	23	20	3
Bulung'ur	23	8	15
Jomboy	38	32	6
Ishtixon	13	7	6
Kattaqo'rg'on	9	9	-
Qo'shrabot	11	4	7
Narpay	5	5	-
Payariq	15	8	7
Pastdarg'om	26	21	5
Paxtachi	9	4	5
Samarqand	35	30	5
Nurobod	12	11	1
Urgut	42	38	4
Tayloq	14	10	4

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 21 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 taga kamaygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahar (7 ta yoki jami ulushi 33,3 %), Bulung'ur (4 ta yoki 19,0 %) tumani hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Oqdaryo, Jomboy, Ishtixon, Narpay, Pastdarg'om, Paxtachi, Nurobod va Tayloq (1 ta yoki 4,8 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 9 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 3 ta, Rossiya Federatsiyasi - 3 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2020-yil yanvar-fevral oylarida Isroil Davlati, Tojikiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Belorussiya Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (11 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (5 ta) va qurilish (2 ta), savdo (2 ta), tashish va saqlash (1 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 27 003 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-mart holatiga qaraganda 24,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 8 533 tasi (31,6 %) Samarqand shahri, 2 488 tasi (9,2 %) Urgut, 2 241 tasi (8,3 %) Pstdarg'om, 2 023 tasi (7,5 %) Samarqand, 1 428 tasi (5,3 %) Ishtixon hamda 1 374 tasi (5,1 %) Payariq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jami ulushi, birlikda**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 27 003 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 8 425 tasi (31,2 %) - savdo, 6 152 tasi (22,8 %) - sanoat, 2 781 tasi (10,3 %) - qurilish, 2 552 tasi (9,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 2 351 tasi (8,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 953 tasi (3,5 %) - tashish va saqlash, 569 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 496 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2 724 tasi (10,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


**Kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni to'g'risida
MA'LUMOT**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

birlikda

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	01.03.2020 y.	01.03.2020 y.	2020 yil yanvar-fevral
Samarqand viloyati	28 912	27 003	1 654
Samarqand sh.	8 915	8 533	385
Kattaqo'rg'on sh.	1 018	953	54
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1 127	979	62
Bulung'ur	1 039	951	62
Jomboy	1 031	1 007	76
Ishtixon	1 542	1 428	98
Kattaqo'rg'on	1 384	1 291	136
Qo'shrabot	557	504	32
Narpay	882	847	66
Payariq	1 567	1 374	84
Pastdarg'om	2 456	2 241	141
Paxtachi	613	587	40
Samarqand	2 241	2 023	167
Nurobod	803	735	49
Urgut	2 555	2 488	139
Tayloq	1 182	1 062	63

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar-fevral oylarida 1 654 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 27,7 foizga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahri (385 ta), Samarqand (167 ta), Urgut (139 ta), Kattaqo'rg'on (136 ta), Pastdarg'om (141 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (32 ta), Paxtachi (40 ta) hamda Nurobod (49 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (765 ta), sanoatda (288 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (206 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (148 ta), qurilishda (90 ta), va boshqa turlarida (86 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (18 ta), tashish va saqlashda (25 ta) hamda axborot va aloqada (28 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra 5 136 tani tashkil etib, ulardan 4 820 tasi yoki 94,4 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 61,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,1 % yoki 1 453 tasi sanoat, 26,6 % yoki 1 281 tasi savdo, 26,2 % yoki 1264 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,8 % yoki 375 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 32 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 41 tasi qurilish, 0,9 % yoki 45 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki 15 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 6,5 % yoki 314 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Samarqand viloyati	572	100
Samarqand sh.	82	14,3
Kattaqo'rg'on sh.	16	2,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	20	3,5
Bulung'ur	18	3,1
Jomboy	36	6,3
Ishtixon	15	2,6
Kattaqo'rg'on	68	11,9
Qo'shrabot	3	0,5
Narpay	33	5,8
Payariq	47	8,2
Pastdarg'om	55	9,6
Paxtachi	4	0,7
Samarqand	105	18,4
Nurobod	4	0,7
Urgut	37	6,5
Tayloq	29	5,1

2020-yil yanvar-fevral oylarida 572 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13 taga kamroqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Samarqand tumani (105 ta), Samarqand shahar (82 ta), Kattaqo'rg'on (68 ta) va Pstdarg'om tumanlari (55 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (3 ta), Nurobod va Paxtachi tumanlarida (4 ta) tashkil etilgan.

2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, birlikda



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 48,1 % yoki 275 tasi savdo, 19,9 % yoki 114 tasi sanoat, 18,5 % yoki 106 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 7,0 % yoki 40 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 4,7 % yoki 27 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

KTYADR – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risida”gi 274-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9-fevraldagi 66-son qaroriga asosan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi) organlari tomonidan berilgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.



**Samarqand viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo‘limi
Tel.:71-230-85-42 (43)**